

O'ZBEK MAROSIM FOLKLORIDA NABOTOT TERMINLARINING SAKRAL (MUQADDAS) SEMANTIKASI

Ruzimurodova Sitara Nurmamat qizi

Qarshi davlat universiteti magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19689710>

Annotatsiya. Ushbu maqola o'zbek marosim folklorida qo'llaniladigan nabotot terminlarining (fitonimlarning) sakral (muqaddas) va mifologik xususiyatlarini lingvokulturologik hamda etnolingvistik jihatdan tadqiq etishga bag'ishlangan. Tadqiqotda oilaviy va mavsumiy marosimlar (to'y, beshik to'yi, motam, Navro'z) matnlarida ishtirok etgan "olma", "isiriq", "bug'doy", "tut", "xazon" kabi o'simlik nomlarining shunchaki botanik obyekt emas, balki nasl davomiyligi, yovuzlikdan himoya va ilohiy baraka kabi ijtimoiy-madaniy e'tiqodlarni ifodalovchi yashirin lisoniy kodlar ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Etnografik matnlar tahlili orqali o'zbek olam lisoniy manzarasida tabiat va inson o'rtasidagi garmoniyaning tilga qanday ko'chganligi yoritilgan.

Kalit so'zlar: marosim folklori, fitonim, sakral semantika, lingvokulturologiya, etnolingvistika, madaniy kod, animistik e'tiqod, olam lisoniy manzarasi.

THE SACRED SEMANTICS OF BOTANICAL TERMS (PHYTONYMS) IN UZBEK CEREMONIAL FOLKLORE

Annotation. This article is devoted to the linguocultural and ethnolinguistic investigation of the sacred and mythological features of botanical terms (phytonyms) used in Uzbek ceremonial folklore. The study scientifically substantiates that plant names such as "apple" (olma), "peganum" (isiriq), "wheat" (bug'doy), "mulberry" (tut), and "fallen leaves" (xazon), present in the texts of family and seasonal ceremonies (weddings, cradle ceremonies, mourning, Navruz), serve not merely as botanical objects but as hidden linguistic codes expressing socio-cultural beliefs like procreation, protection from evil spirits, and divine blessing. Through the analysis of ethnographic texts, the article highlights how the harmony between nature and humans in the Uzbek linguistic picture of the world is reflected in the language.

Keywords: ceremonial folklore, phytonym, sacred semantics, linguoculturology, ethnolinguistics, cultural code, animistic belief, linguistic picture of the world.

KIRISH

Jahon tilshunosligida tilni faqatgina insonlararo mexanik aloqa vositasi sifatida emas, balki xalqning madaniyati, tarixi, e'tiqodi va tafakkur tarzini o'zida saqlovchi hamda avloddan avlodga yetkazuvchi noyob ijtimoiy xazina sifatida o'rganish tamoyili yetakchi o'ringa chiqdi.

Antropotsentrik paradigmaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lgan etnolingvistika va lingvokulturologiya fanlari aynan til va madaniyatning o'zaro uzviy aloqadorligini tadqiq etadi.

Har bir xalqning olam lisoniy manzarasi uning asrlar davomida shakllangan hayotiy tajribasi, hududiy joylashuvi va mifologik qarashlari asosida quriladi. Bu lisoniy manzarada tabiat, xususan, nabotot olami (flora) va inson o'rtasidagi munosabatlar alohida, o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqining qadimiy ziroatkorlik an'analari, tabiat ne'matlariga bo'lgan kuchli ehtiyoji va ehtiromi tilimiz lug'at boyligida yuzlab, minglab nabotot atamalarini (fitonimlarni) yuzaga keltirgan. Biroq jonli xalq tilida bu atamalar faqatgina qandaydir obyektning atash (nominativ) vazifasi bilangina cheklanmaydi.

O'zbek xalqining etnografik hayoti, xususan, turli maishiy, oilaviy va mavsumiy marosimlari qadimiy e'tiqodlar, animistik va totemistik qarashlar qorishmasidan iborat ulkan

lisoniy-madaniy matn hisoblanadi. Xalq og'zaki ijodining eng ta'sirchan tarmog'i bo'lgan marosim folklorida (to'y, beshik to'yi, Navro'z, aza va yo'qlovlar) ishtirok etuvchi fitonimlar o'zining sof obektiv-biologik ma'nosidan butunlay ajralib chiqadi. Ular xalqning tasavvurida g'ayritabiyy, ilohiy qudratga ega bo'lgan, inson taqdiriga bevosita ijobiy yoki salbiy ta'sir o'tkaza oladigan, yovuzlikdan himoya qilib, ezgulik, baxt va baraka olib keluvchi yashirin lisoniy kodlarga aylanadi. Tilshunoslikda so'zning bu qadar yuksak mifologik, magik va e'tiqodiy ma'no tashishi uning sakral (muqaddas) semantikasi deb yuritiladi. Marosim folklori matnlarida qo'llanadigan "olma", "isiriq", "tut", "bug'doy", "xazon" kabi so'zlar shunchaki tabiat in'omi emas, balki xalqning ezgu orzu-umidlari, ichki qo'rquvlari va Yaratgandan so'raydigan iltijolarini o'zida kodlashtirgan qudratli lingvokulturemalar sanaladi.

Bugungi kunga qadar o'zbek tilshunosligida nabotot terminlari leksikografik, struktur-semantik va etimologik jihatdan muayyan darajada tadqiq etilgan. N. Mahmudov, Sh. Safarov, D. Xudoyberganova, Sh. Usmonova kabi olimlarning ishlari lingvokulturologiyaning milliy nazariy poydevorini yaratib berdi. Shuningdek, H. Dadaboyev, O. Usmobekovlarning tadqiqotlarida dehqonchilik va qishloq xo'jaligi leksikasi tarixiy jihatdan yoritilgan. Ammo o'simlik nomlarining bevosita o'zbek marosim folklori matnlaridagi sakral semantikasi, ularning inson ruhiyati va jamiyat qadriyatlaridagi mifologik ishtiroki yagona hamda maxsus lingvokulturologik obyekt sifatida to'laqonli yoritilmagan. Globallashuv jarayonlarida ko'plab qadimiy rasm-rusumlar va ular bilan bog'liq lisoniy birliklar passiv qatlamga o'tib borayotgan bugungi kunda ushbu mavzuni o'rganish nafaqat tilshunoslik fani, balki milliy o'zlikni anglash nuqtayi nazaridan ham o'ta dolzarb ahamiyatga ega.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi – o'zbek xalqining oilaviy va mavsumiy marosimlari, rasm-rusum qo'shiqlari hamda dostonlari tarkibida faol qo'llaniladigan yetakchi nabotot terminlarining lisoniy-madaniy xususiyatlarini va ularning yashirin sakral ma'nolarini ochib berishdan iborat. Izlanishlar davomida etnolingvistik kuzatish, konseptual va leksik-semantik (komponent) tahlil metodlaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti sifatida to'y marosimi qo'shiqlari ("Yor-yor", "Kelin salom"), Navro'z bayrami bilan bog'liq rasm-rusumlar, beshik to'yi hamda motam yo'qlovlari matnlaridagi fitonimlar tanlab olindi. Olib borilgan ushbu tahlillar o'zbek lisoniy manzarasida tabiatning inson ijtimoiy hayoti bilan qanchalik uyg'un ekanligini, xalqimizning o'ziga xos etnolisoniy va mifologik xotirasi tilimizda qanday qilib asrlar osha barqaror saqlanib kelayotganini ilmiy asoslashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Jahon tilshunosligida inson omilini tadqiqotlar markaziga olib chiqqan antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til va madaniyat umumiylikni o'rganishga qaratilgan lingvokulturologiya hamda etnolingvistika yo'nalishlarini yuzaga keltirdi. "O'zbek tilida nabotot terminlarining lingvokulturologik xususiyatlari" mavzusi doirasidagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu yo'nalishdagi izlanishlar asosan uchta yirik tarmoqda – umumiy lingvokulturologiya, milliy-madaniy tahlillar hamda leksikologik-etimologik atamashunoslik doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asoslarini belgilashda jahon va rus tilshunosligida yaratilgan fundamental asarlar muhim o'rin tutadi. Xususan, V.A. Maslova, V.V. Vorobyov, V.I. Karasik, Yu.S. Stepanov kabi olimlarning tadqiqotlarida "olam lisoniy manzarasi", "lingvokulturaviy konsept" va "lingvokulturema" tushunchalarining ilmiy-nazariy talqini ishlab chiqilgan.

Xorijiy olimlardan F. Sharifian va A. Wierzbickalarning izlanishlarida tabiat va inson munosabatlarining lisoniy ifodasi umumbashariy hamda milliy-xoslangan modellar asosida dalillangan. Bu nazariy qarashlar nabotot atamalarining madaniy konnotatsiyalarini ochishda tayanch vazifasini o'taydi.

O'zbek tilshunosligida til va madaniyat masalalari, konseptual tahlil va lingvokulturologiyaning shakllanishi N. Mahmudov, Sh. Safarov, D. Xudoyberganova, Sh. Usmonova kabi yetuk olimlarning tadqiqotlarida o'zining teran ifodasini topgan. Akademik N. Mahmudovning asarlarida o'zbek tilining boy frazeologik fondi, xususan, o'simliklar qatnashgan iboralarda xalq mentaliteti va yuksak qadriyatlari (andisha, sabr, mehmondo'stlik) qanday lisoniy yuzaga chiqishi atroflicha tahlil qilingan. D. Xudoyberganovanning ishlarida badiiy matn konseptosferasi tadqiq etilgan bo'lsa, Sh. Safarovning kognitiv tadqiqotlarida borliqni lisoniy tabaqalashtirish tamoyillari izohlangan.

Bevosita nabotot leksikasini (fitonimlarni) leksik-semantik va etimologik jihatdan o'rganish tarixiga kelsak, ilk ishonchli manba Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridir. Keyingi davrlarda so'z etimologiyasi, dehqonchilik va tabiat leksikasi H. Dadaboyev, O. Usmobekov tomonidan o'rganilgan.

N. Uluqovning izlanishlarida esa fitonimlar asosida yasalgan joy nomlari (topofitonimlar) tahlil qilingan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki, shu kunga qadar fitonimlar asosan leksikografik va sof etimologik doirada o'rganilgan bo'lib, ularni yaxlit lingvokulturrema sifatida, xalq tabobati, pazandachilik, marosim folklori va jadid adabiyot matnlaridagi sakral hamda ijtimoiy-siyosiy ramziyligini kompleks tadqiq etuvchi izlanishlar yetarli emas. Bu esa tadqiqotimizning dolzarbligini va fanda yangilik yarata olishini belgilaydi.

Tadqiqotning maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda, o'zbek tilidagi nabotot terminlarining leksik-semantik, etimologik va lingvokulturologik xususiyatlarini yoritishda zamonaviy tilshunoslikning bir qator an'anaviy va innovatsion tadqiqot metodlaridan kompleks tarzda foydalanildi:

1. **Tavsifiy (deskriptiv) metod:** Tadqiqotning dastlabki bosqichida o'zbek tili leksikasidagi o'simlik, daraxt, gul va giyoh nomlarini yig'ish, ularning bugungi kundagi holatini, shakliy va morfologik tuzilishini inventarizatsiya qilish hamda tasniflash maqsadida jalb etildi.

2. **Lingvokulturologik va konseptual tahlil metodi:** Ishning eng asosiy, tayanch usuli hisoblanadi. Bu metod yordamida fitonimlarning shunchaki lug'aviy ma'nosi emas, balki ularning xalq og'zaki ijodi, mumtoz adabiyotda, shuningdek, marosim, tabobat hamda pazandachilik matnlaridagi yashirin madaniy, mifologik va ramziy (sakral) ma'nolari ochib berildi.

3. **Tarixiy-etimologik tahlil usuli:** O'zbek tilidagi nabotot terminologiyasining kelib chiqish manbalarini xronologik jihatdan o'rganishda qo'llanildi. Bu usul orqali fitonimlar tarkibidagi sof turkiy o'zaklar hamda o'zlashma qatlamlar (fors-tojik, arab, yevropa) ajratib ko'rsatildi.

4. **Leksik-semantik va komponent (sema) tahlil usuli:** Fitonimlarning ko'p ma'noliligi, ma'no ko'chishlari va frazeologizmlar hamda paremiologik birliklar tarkibidagi ishtirokini o'rganishda xizmat qildi. So'zning lug'aviy ma'nosi eng kichik bo'laklarga (semalarga) ajratilib tahlil qilindi.

Ushbu metodlarning o'zaro sintezi va uzviy qo'llanilishi tadqiqot obyektini ham sof lisoniy, ham keng madaniy-antropotsentrik aspektda chuqur va obektiv yoritib berishni ta'minladi.

NATIJARLAR

Tadqiqot doirasida o'zbek tilidagi nabotot terminlarining leksik-semantik, etimologik va lingvokulturologik xususiyatlarini kompleks o'rganish hamda tahlil qilish asosida bir qator muhim ilmiy-amaliy natijalarga erishildi. Eng avvalo, o'zbek tili lug'at tarkibidagi fitonimlar qat'iy leksik-semantik guruhlarga, jumladan, mevali va mevasiz daraxtlar, poliz ekinlari, donli ekinlar, gullar, dorivor gilyohlar va yovvoyi o'simliklar kabi tasniflarga ajratilib, ularning sistemaviy tabiati to'liq yoritildi. Nabotot atamalarining shakliy yasalyotgan modellari inventarizatsiya qilinib, tilda so'z yasashida va nom berishda insonning kognitiv-baholovchi faoliyati, atrofdagi borliqni o'z ehtiyojlariga moslashtirish jarayoni hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi.

Lisoniy manzaramizdagi nabotot leksikasining genetik manbalari va etimologik qatlamlari tadqiq etilishi natijasida, fitonimik fondning eng qadimiy va asosiy o'zagini sof turkiy so'zlar tashkil etishi isbotlandi. Olma, yong'oq, qovun, yantoq kabi atamalar tilimizning o'ziga xos lisoniy taraqqiyot yo'lini aniq ko'rsatib berdi. Shu bilan birga, asrlar davomida xalqlar o'rtasidagi savdo-sotiq, madaniy aloqalar va tillararo interferensiya oqibatida o'zlashgan forsojlik, arab hamda yevropa tillariga oid atamalarining o'zbek tiliga moslashish jarayonlari xronologik jihatdan dalillandi. Bu qatlamlar tilimizni buzmaganda, uning ifoda imkoniyatlarini yanada boyitgani obektiv kuzatildi.

Tadqiqotning eng muhim xulosalaridan yana biri shundaki, o'zbek xalq maqollari va iboralari tarkibidagi fitonimlar faqatgina botanik obyektini ifodalamaydi. Ular inson xarakteri, axloqi, dunyoqarashi va ijtimoiy munosabatlarni baholovchi kuchli kognitiv qolip hamda tarbiyaviy tarozi ekanligi dalillandi. Xalqimiz tafakkurida kamtarlik, oqibat, andisha kabi ijobiy qadriyatlar ko'proq mevali daraxtlar va gullar vositasida ifodalansa, kibr, xudbinlik, yomonlik kabi salbiy qusurlar cho'l va tikanakli o'simliklar tushunchasiga uzviy birlashtirilishi lingvokulturologik tahlillar orqali o'z tasdiqini topdi.

Etnografik matnlar, xususan, xalq tabobati, milliy pazandachilik va marosim folklori doirasidagi tahlillar fitonimlarning ulkan sakral va mifologik qudratini yuzaga chiqardi. Isiriq, sedana, kovrak kabi atamalar xalq e'tiqodida yovuzlikdan himoya qiluvchi, ruhiy poklovchi magik kodlarga aylangan bo'lsa, rayon, zira, bug'doy kabi tushunchalar to'kin-sochinlik, mehmondo'stlik va ilohiy baraka ramzi sifatida o'zbek milliy mentalitetining ajralmas lisoniy simvolini hosil qilishi ilmiy asoslandi. Bitta o'simlik nomining o'zi turli xil maishiy vaziyatlarda ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita sifatida ishlashi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, yigirmanchi asr boshi jadid adabiyoti vakillari asarlarida an'anaviy fitonimlarning jiddiy ma'no ko'chishlari aniqlandi. Mumtoz adabiyotdagi romantik gul yoki lola obrazlari jadidlar matnida Vatan fojiasi, hurriyat, isyon va qatag'on qurbonlarining ijtimoiy-siyosiy metaforalariga aylanganligi aniq lisoniy dalillar yordamida yoritib berildi. Xulosa qilib aytganda, o'zbek tilidagi nabotot terminologiyasi nafaqat qishloq xo'jaligi yoki botanika fani objekti, balki xalqning asrlar davomida shakllangan hayotiy falsafasini, magik e'tiqodini, estetik didi va yuksak axloqiy qadriyatlarini o'zida kodlashtirgan o'ta boy hamda bebaho lingvokulturologik tizim ekanligi ushbu tadqiqot doirasida to'laqonli tasdiqlandi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'zbek marosim folklorida qo'llaniladigan fitonimlar an'anaviy tilshunoslik doirasidagi shunchaki lug'aviy birliklar emas, balki xalqning qadimiy animistik va magik e'tiqodlarini saqlovchi kuchli madaniy kodlardir.

Jahon etnolingvistikasida olimlar tomonidan ilgari surilgan "olamning milliy manzarasi" nazariyasini o'zbek marosim matnlari misolida kuzatishimiz ushbu nazariyaning to'laqonli tasdiq'ini beradi. Xususan, o'zbek lisoniy tafakkurida inson va tabiat garmoniyasi shu qadar kuchliki, xalq o'zining eng muhim o'tish marosimlarida (tug'ilish, oila qurish, o'lim) jismoniy va ruhiy muvozanatni aynan o'simliklar vositasida ta'minlashga harakat qilgan. Isiriqning yovuz ruhlarni haydashi, bug'doyning tirilish va baraka olib kelishi yoxud olmaning ilohiy nasl-nasab ramzi sifatida talqin etilishi so'zning kundalik ma'nosidan yuksakdagi pragmatik va sakral qudratidan dalolat beradi.

Ushbu tahlillar o'zbek tilshunosligida fitonimlarni o'rganishga doir an'anaviy qarashlarni sezilarli darajada kengaytiradi. Shu vaqtga qadar o'simlik nomlari ko'proq qishloq xo'jaligi, etimologiya yoki maxsus botanik terminologiya doirasida o'rganilgan bo'lsa, ushbu maqola natijalari ularning inson psixologiyasi, ruhiyati va ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi vosita ekanligini namoyon etdi. Masalan, "Kelin salom", "Beshik to'yi" yoki "Yor-yor" matnlarida faol qo'llanadigan fitonimlar bevosita yosh oilaning kelajagiga ijobiy dasturlash, ya'ni psixolingvistik platsebo vazifasini o'taydi. Xalq o'zining kelajakka bo'lgan ezgu umidlarini, farzandlarining tutdek pishiq, anordek serfarzand, yong'oqdek qattiq bo'lishiga ishonchini jonsiz botanik obyektlar semantikasiga kognitiv ko'chiradi. Shu orqali butun jamiyat a'zolari va marosim ishtirokchilarining ruhiy osoyishtaligi hamda ijtimoiy totuvligi ta'minlanadi.

Shuningdek, muhokama jarayonida bitta fitonimning o'zi marosim turiga qarab mutlaqo qarama-qarshi semantik qutblarda harakatlanishi mumkinligi kuzatildi. Agar bahoriy rasm-rusumlarda (masalan, Navro'zda) unib chiqayotgan maysa, nihol yoki gullar inson umrining ibtidosi va yasharishini anglatsa, motam va yo'qlov marosimlaridagi xazon, qurigan shox yoki tikanakli o'simliklar obrazlari o'lim, yo'qotish, ayriliq va umidlarning so'nishi kabi fojiviy konseptlarni lisoniy ifodalaydi. Bu lisoniy hodisa o'zbek mentalitetida obektiv tabiat qonuniyatlarining inson subyektiv taqdiri bilan bevosita va uzviy sinxron ekanligiga bo'lgan qat'iy ishonchni ko'rsatadi.

Bugungi shiddatli globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarida ko'plab qadimiy rasm-rusumlar maishiy hayotdan chiqib bormoqda, buning bevosita oqibatida ularga xizmat qiluvchi sakral fitonimlar ham tilning passiv qatlamiga aylanib qolish xavfi ostida turibdi. Ushbu maqolada keltirilgan lingvokulturologik tahlillar ana shu qadimiy e'tiqodiy kodlarni ilmiy jihatdan qayd etish va o'zbek xalqining boy mifologik xotirasini kelajak avlodlar uchun lisoniy jihatdan saqlab qolishga xizmat qiladi. Kelgusida mazkur yo'nalishdagi izlanishlarni boshqa turkiy xalqlar marosim folklori bilan qiyosiy-tipologik jihatdan o'rganish, shubhasiz, milliy etnolingvistika fani uchun yangi va muhim nazariy ufqlarni ochib beradi.

XULOSA

O'zbek marosim folklorida qo'llaniladigan nabotot terminlarining lingvokulturologik tahlili shuni qat'iy tasdiqlaydiki, fitonimlar milliy lisoniy manzaramizning eng teran va sakral qatlamini tashkil etadi. Ular shunchaki tabiat in'omlarini atovchi vosita emas, balki xalqimizning asrlar davomida shakllangan mifologik qarashlari, animistik e'tiqodi va kelajakka bo'lgan ezgu umidlarini o'zida mujassam etgan qudratli madaniy kodlardir.

Tadqiqot davomida isiriq, olma, bug'doy, tut va xazon kabi atamalar misolida ko'rdikki, har bir o'simlik nomi aniq bir marosim diskursida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik vazifani bajaradi. Ular yovuzlikdan himoya qiluvchi tumor, ilohiy baraka ramzi yoki inson taqdirini ijobiy tomonga dasturlovchi lisoniy mexanizm bo'lib xizmat qiladi.

Bitta atamaning vaziyatga qarab ham ijobiy, ham fojiaiy ma'no tashishi o'zbek mentalitetida tabiat va inson taqdiri yagona butunlik deb qabul qilinishini ko'rsatadi.

Bugungi globallashuv va urbanizatsiya jarayonlarida ko'plab an'anaviy rasm-rusumlar amaliyotdan chiqib borayotgan bir sharoitda, marosim fitonimlarining yashirin semantikasini ilmiy jihatdan o'rganish va ularni milliy korpusga kiritish beqiyos ahamiyatga ega.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, o'zbek tilidagi nabotot leksikasi shunchaki so'zlar yig'indisi emas, balki xalqimizning o'ziga xos tafakkur tarzi va qadimiy tarixining tirik guvohidir. Ularni etnolingvistik va lingvokulturologik jihatdan chuqur tadqiq etish istiqbolda tilimizning cheksiz ifoda imkoniyatlarini kashf qilishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ashirov A. O'zbek xalqining qadimiy e'tiqod va marosimlari. – T.: Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007. – 276 b.
2. Dadaboyev H. O'zbek terminologiyasi. – T.: Yoshlar nashriyot uyi, 2019. – 135 b.
3. Jo'rayev M. O'zbek mavsumiy marosim folklori. – T.: Fan, 2008. – 240 b.
4. Mahmudov N. Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab... – T.: Akademiya, 2012. – 256 b.
5. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya. – T.: Universitet, 2019. – 254 b.
6. Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – T.: Fan, 2013. – 136 b.
7. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультуроология: ценностно-смысловое пространство языка. – М.: Флинта, 2010. – 288 с.